

## **Sohil qushlari**

Sohil qushlari suv havzalari atrofida, dengiz va okean sohillarida, daryo hamda ko'l bo'ylarida yashaydigan qushlar guruhidir. Ular hayot tarziga ko'ra suv bilan chambarchas bog'langan bo'lib, oziqlanishi va ko'payishi asosan sohil hududlarida kechadi.

**Sohil qushlari tashqi tuzilishi jihatidan suvli muhitga yaxshi moslashgan:** oyoqlari ko'pincha uzun va ingichka bo'lib, sayoz suvda yurishga qulay. Bu qushlarga misol qilib Albatros, Baklan, Pelikan, Chag'alaylarni misol qilib keltirish mumkin



**Albatross- sohil qushi**



**Tumshug'i** esa uzun yoki o'tkir bo'lib, suvdan o'ljani ushlashga yordam beradi.



**Baklan - sohil qushi**



Patlari suvni kam oʻtkazadi va sovuqdan himoya qiladi.



**Baklan-sohil qushi**



Bu qushlar asosan baliqlar, qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar, suv hasharotlari hamda ularning lichinkalari bilan oziqlanadi. Ayrim turlari o'simlik qoldiqlari va mayda suv organizmlarini ham iste'mol qiladi. Oziq topish jarayonida ular suv bo'yida yurib, tumshug'i bilan tuproqni kovlaydi yoki sayoz suvdan o'ljani tutadi. Sohil qushlarining ko'pchiligi mavsumiy ko'chib yuruvchi hisoblanadi. Ular yilning sovuq faslida issiq hududlarga ko'chib, bahor va yoz oylarida yana ko'payish joylariga qaytadi. Ko'payish davrida sohil qushlari qumli yoki o'simlik kam bo'lgan joylarda uya quradi. Tuxumlari ko'pincha yer rangiga o'xshash bo'lib, yirtqichlardan yashirinishga yordam beradi. Jo'jalari tug'ilgach tezda harakatlana oladi va mustaqil oziqlanishga moslashgan bo'ladi.





**Chag'alay - sohil qushi**



Sohil qushlari tabiatda muhim ahamiyatga ega. Ular suv havzalaridagi biologik muvozanatni saqlashda ishtirok etadi, zararkunanda hasharotlar va mayda suv jonzotlari sonini tartibga soladi. Shuningdek, ular atrof-muhit holatini ko'rsatuvchi bioindikator hisoblanadi. Shu sababli sohil qushlarini muhofaza qilish va ularning yashash muhitini saqlab qolish muhimdir.

**Flamingo** — dengiz bo'ylari va sho'r, sayoz ko'llarda yashaydigan uzun oyoqli va uzun bo'yinli qushdir. Ular asosan mayda qisqichbaqasimonlar, plankton va suv o'tlari bilan oziqlanadi.



Flamingolarning pushti rangga ega bo'lishi iste'mol qiladigan ozuqasidagi karotinoid moddalar bilan bog'liq. Bu qushlar to'da bo'lib yashaydi va ko'payadi, tinch tabiatli hisoblanadi. Flamingolar ko'pincha bir oyog'ida turib dam olishi bilan mashhur bo'lib, ular yashayotgan hudud ekologik holatining ko'rsatkichlaridan biri sanaladi.



**Qumoyoq** — asosan dengiz va ko‘l sohillari, qumli qirg‘oqlarda yashaydigan mayda va chaqqon qushdir. U suv bo‘ylarida yugurib yurib, mayda hasharotlar, qurtlar va mollyuskalar bilan oziqlanadi.



Qumoyoq o'z nomini qum ustida tez va yengil harakatlanish xususiyatidan olgan. Bu qushlar mavsumiy ko'chib yuruvchi bo'lib, to'da holida uchraydi. Qumoyoqlar tabiiy muhit tozaligini bildiruvchi qushlar qatoriga kiradi.